



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRINING  
BUYRUG'I**

2023 yil. "1" noyabr

**353-son**

**"Mening uyim" axborot billing tizimi  
faoliyatini yanada takomillashtirish va xizmat ko'rsatish  
sifatini yaxshilash to'g'risida**

Ko'p kvartirali uylarni saqlash bilan bog'liq jarayonlarni doimiy monitoring qilish, "Mening uyim" axborot billing tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida

**B U Y U R A M A N:**

1. "Mening uyim" axborot billing tizimi (keyingi o'rinnarda—axborot tizimi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2021-yil 19-iyundagi PQ-5152-son qaroriga asosan ishlab chiqilib, tatbiq qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Vazirning birinchi o'rinnbosari Sh.Xidoyatov Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Respublika markazi (M.Zagrutdinov) bilan birgalikda "Mening uyim" axborot billing tizimining (keyingi o'rinnarda axborot tizimi deb yuritiladi) doimiy texnologik qo'llab-quvvatlanishi va takomillashtirib borilishini ta'minlasin.

3. Qurilish va uy-joy communal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi (K.Tulyaganov):

ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlari tomonidan uylarni boshqarish faoliyati axborot tizimi orqali amalga oshirilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatish va har oyda vazirlikka ma'lumot kiritib borilishini;

yangi qurilgan ko'p kvartirali uylar axborot tizimiga kiritilgandan so'ng foydalanishga qabul qilinishini ta'minlasin.

4. Vazir o'rinnbosari O.Jurayeva, Ko'p xonardonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish boshqarmasi (O.Muminov) **ikki oy muddatda** respublikadagi barcha ko'p kvartirali uy-joy fondi axborot tizimiga kiritilishini;

axborot tizimiga kiritilayotgan ma'lumotlarning sifatli va haqqoniyligi nazoratga olinishini;

axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish hamda uning uzluksiz faoliyatini ta'minlashda mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan mas'ullarga nisbatan ta'sirchan choralar qo'llash yuzasidan takliflar rahbariyatga kiritilishini;

*Qurilish va uy-joy communal xo'jaligi sohasida nazorat qilish  
inspeksiyasi*

**ikki oy muddatda** axborot tizimi faoliyatini tartibga soluvchi hujjat loyihasi ishlab chiqilishini;

axborot tizimi faoliyati doimiy monitoring qilib borilishi va tizim faoliyatini takomillashtirib borish yuzasidan takliflar ishlab chiqilishini ta'minlasin.

**5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, viloyatlar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmalari boshliqlari bir oy muddatda:**

xududlarda barcha ko'p kvartirali uylarda tanlangan boshqaruv usulini ko'rsatgan xolda ro'yxati shakllantirilsin va vazirlikka taqdim etgan holda belgilangan tartibda axborot tizimiga kiritilishini;

axborot tizimiga noto'g'ri kiritilgan ko'p kvartirali uylar haqidagi ma'lumotlarni kadastr tizimi ma'lumotlari bilan muvofiqlashtirish hamda kiritilmaganlarini kiritishni;

axborot tizimidagi ma'lumotlarni xatlovdan o'tkazib, mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish yuzasidan takliflarni vazirlikka kiritilishini ta'minlasin.

**6. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Respublika markazi (M.Zagrutdinov) axborot tizimini yuritish, texnologik qo'llab-quvvatlash va takomillashtirib borish uchun mas'ul (operator) etib belgilansin.**

Axborot tizimi operatori sifatida quyidagi vazifalar ijrosini ta'minlasin:

axborot tizimini yuritish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha texnologik jarayon to'liq qabul qilinishi hamda kelgusida uni doimiy faoliyat yuritishi, shuningdek, takomillashtirib borilishini;

axborot tizimi resurslari va ma'lumotlar bazalarini yaratish, rivojlantirish, yangilab borish, qo'llab-quvvatlash;

yo'riqnomalar ishlab chiqish, zarur hamroh dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, texnologik yordam ko'rsatish;

axborot tizimining boshqa davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiyasini amalga opshirish;

murojaatlarni qabul qilish va ijrochilarga yetkazish, uning natijasi bo'yicha murojaat etuvchini xabardor qilish bo'yicha "Call markaz" vazifasi bajarilishini ta'minlovchi axborot dasturini yaratish.

**7. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Respublika markazi (M.Zagrutdinov):**

**bir oy** muddatda axborot tiziminida ko'p kvartirali uy-joylarni mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish uchun belgilangan tartibda shakllantirilgan umumi smeta qiyamatining 30 foizini mulkdorlar xisobidan to'lab borish imkoniyatini yaratilishini;

**ikki oy** muddatda Issiqlik ta'minoti sohasiga billing tizimini ishlab chiqilishini ta'minlasin.

**8. Axborot tizimidagi abonentlar qarzdorligini o'zgartirish funksiyasi yopilsin.** Aloxida xollarda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining xulosasiga asosan o'zgartirishga ruxsat etilsin.

**9. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Respublika markazining axborot tizimini operator sifatida yuklatilgan vazifalarni "Shaffof consult" mas'uliyati cheklangan jamiyati orqali amalga opshirish haqidagi taklifiha rozilik berilsin.**

**10. Axborot xizmati (S.Usmonov) yigirma kun muddatda** axborot tizimini aholi o'rtasida targ'ib qilish va ommalashtirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqqan holda targ'ibot-tashviqot tadbirlarini amalga oshirsin.

Bunda, axborot billing tizimi faoliyati to'g'risida targ'ibot materiallari tayyorlanib, markaziy va mahalliy OAV hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinishiga alohida e'tibor

qaratilsin.

**11.** Devonxona (G.Otaboyeva) mazkur buyruqni bir kun muddatda uni kirituvchining tarqatish ko‘rsatkichi asosida mas’ullarga yetkazsin.

**12.** Mazkur buyruq ijrosi nazorati vazirning birinchi o'rinosini Sh.Xidoyatov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



B.Zakirov